

About The Words Meaning the Term "Philosopher" In the Works of Alisher Navoi

Xilola Abdujabborova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası
o‘qituvchisi

E-mail: xilolaabdujabborova5@gmail.com

Tel: 99 380 41 15

O‘zDSMI professori, t.f.d. I. Ostonaqulov taqrizi asosida

Annotation: This article describes the use of lexical meaning and terminological interpretation of words and concepts that replace the word philosopher and its synonyms in the works of Alisher Navoi from a linguistic point of view, through which the peculiarity of the genius of the thinker is manifested.

Key words: philosophy, philosopher, sage, term, terminology, Alisher Navoi.

Kirish (Introduction). Yurtimizning shonli tarixida, uning ilm-fan taraqqiyoti, ayniqsa, ona tilimiz rivojida buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning xizmatlari cheksizdir. Qaysi sohani o‘rganishga jazm qilmang, o‘sha sohaga oid qiziqarli ma’lumotlarni, albatta, Alisher Navoiy ijodidan topishingiz mumkin. Bu esa hazratning juda ham keng dunyoqarash, keng tafakkur egasi ekanligidan dalolat beradi. Xususan, o‘zbek falsafa terminologiyasini o‘rganishda ham bevosita Alisher Navoiy asarlariga murojaat etamiz. Chunki bu ulug‘ zotning ijodini, boy ma’naviy merosini qancha o‘rgansak, shuncha kam. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “Ming afsuski, bizga sovet davrida Pushkin, Lermontovning bobolari xoki qayerda to‘kilganini o‘qitgan xolos. Alisher Navoiy yoki Boburlarni o‘qitmagan. Rus tilida o‘qigan odamlar Pushkin, Lermontovni o‘qigan. Biz hech kimga Boburni o‘qitmaganmiz”[1]. Shunday ekan, hurlik zamonining yoshlari Navoiyni bilishlari, o‘qib o‘rganishlari va keyingi avlodga hazrat ijodiga doir ko‘plab ilmiy ishlarni taqdim etishlari lozim. Biz ham terminlarni o‘rgandik. Navoiyning olam yaralishi, davlat va jamiyat, inson va islom falsafasiga oid falsafiy qarashlari qimmatli bo‘lib, biz ularni tadqiqotimiz obyektida olishimiz muki. Buni birgina “faylasuf” termini misolida bayon etiladi. Maqolada terminning ma’nodosh shakllari haqida fikr yuritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Letirature review). Borliq, uni anglash haqidagi dastlabki tasavvurlar in’ikosi sifatida paydo bo‘lgan falsafa fani eng qadimiy fanlar sirasiga kiradi. Mazkur fan sohasidagi terminlar esa tilshunoslik, xususan, terminologiyaning obyektini sanaladi. Izlanishlarimizni sohaga doir “faylasuf” terminining Alisher Navoiy asarlaridagi ifodalanishidan boshlaymiz. Ushbu terminga “Falsafa” qomusiy lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: Faylasuf – 1) grek. phileo – sevmok, sophia – donishmand so‘zlaridan iborat “filosof” atamasining o‘zbekcha ifodalanishi; 2) hozirgi kundalik hayotda falsafa fanining asoslarini egallagan, mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib boradigan yoki ilmiy daraja va unvonga ega bo‘lgan mutaxassis [2]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa quyidagicha izohlangan: *yun.* philosopher — donolikni sevuvchi. 1. Falsafa ilmi, dunyoqarash muammolari bilan shug‘ullanuvchi olim, mutaxassis. 2. *s.t.* Donolar kabi muhokama yurgizadigan; donishmand [3]. Berilgan ikkala ta’riflar ham bir-biriga monand bo‘lib, hozirgi kunda tilimizda aynan shunday tushuniladi. Xususan, “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”da bu atamaning bir qancha ma’nodoshlari uchraydi:

Aizza – azizlar; ulug‘lar; donishmandlar: “Bu latofat oyin aizzag‘a va bu balog‘at tazyin, ajillag‘akim, ta’blari natijasidin olam ahli xushhol” [4].

Ahbor – donishmandlar, xiradmandlar, donolar, olimlar: “Kayxisrav zamonida anbiyodin Sulaymon alayhis-salom va ahbordin Siluni va hukamodin Fishog‘urs erdilar” [5].

Ahli hikmat – bilimdonlar, donishmandlar, faylasuflar: “Boda tutkim, ahli hikmat charh bemehr erkanin Jom davri xatlari birla mubarhan qildilar” [6].

Bixrad – aqlli, xushyor, dono, xiradmand: “Bu so‘z yetgach Bahromi bixrad, Xito xonig‘a bor edi sinohbad” [7].

Donishvar – bilimdon, o‘qimishli, faylasuf: “Ayta olmon sanga, ey donishvar, Ki bor edi shah ila har kishvar” [8].

Donishmand – bilimli, olim, dono: “Har kishiga irodati durust bo‘lmas erdiki, donishmand erdi va boshi har kimga inmas erdi” [9].

Donishomo‘z – bilimdon: “Kim Omir elida Qaysi badro‘z, Bu haydaki erdi donishomo‘z” [10].

Hikmat – donishmandlik, donolik: “Burun qildi iqbol qismat manga, Ki yor o‘ldilar aql-u hikmat manga” [11].

Hikmatgard – donishmand, ilm-u hikmat sohibi: “Bo‘lub Yunonda hikmatgardi aning, Arastu bir kichik shogirdi aning” [12].

Hikmatjo‘y – donishmand, dono: “Buzurg Ummid hikmatjo‘yi oning, Ne hikmatjo‘, xushomadgo‘yi oning” [13].

Hikmatmaob – faylasuf, olim, hakim: “Debon so‘z degach shohi gardunjanob, Javobin Arastuyi hikmatmaob” [14].

Hikmatoyin – bilimdon, donishmand: “Shoh chun nodiri zamon erdi, Hikmatoyin-u nuqtadon erdi” [15].

Hikmatparast – donishmand, hakim, faylasuf: “Qadah ichmadi shohi hikmatparast, Ki mazmun erur bo‘lmog‘i shoh mast” [16].

Hikmatpesha – donishmand, faylasuf: “Ki darkidin erur andisha hayron, Havosu aqli hikmatpesha hayron” [17].

Hikmatsoz – dono, donishmand, faylasuf: “Vale me‘mori hikmatsozi oning, Burundin qildi sangandozi oning” [18].

Hikmatqism – donishmand, hakim, faylasuf: “Yasag‘anda guruhi hikmatqism, Bog‘lamishlar anga bu nav‘ tilism” [19].

Sharqda “Ikkinchi Arastu”, Ikkinchi muallim deya e‘tirof etilgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy falsafa so‘zini “Hikmatni qadrlash” deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida “donishmandlikni sevish” degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e‘zozlash ma‘nosida ishlatilgan [20]. Ushbu manbada keltirilgan ma‘lumotga asoslangan holda faylasuf so‘zini izohlashda ham “donish”, “hikmat” so‘zlarining asos qilib olingani bejiz emasligini anglashimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbek falsafa terminologiyasini o‘rganishda Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilishimiz bejiz emas, albatta. Birinchidan, Alisher Navoiy nafaqat, shoir, davlat arbobi, balki mutafakkir olim hamdir. Uning ilm-fan rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan asarlari bundan dalolat beradi. Xususan, hazratning garchi aniq falsafaga bag‘ishlangan asari bo‘lmasa-da, uning barcha asarlari asosida falsafa qonuniyatlari, Sharq falsafasi, inson va jamiyat falsafasi, islom va tasavvuf falsafasi g‘oyalari yotadi. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari qiymati va ahamiyati bilan qimmatlidir. Shuningdek, dunyo miqyosida so‘z boyligi eng katta ijodkorlar qatorida turuvchi bobomizning haqiqatda ulkan so‘z zahirasiga ega ekanligiga ushbu kichik tadqiqot yorqin misol bo‘la oladi.

Mazkur maqolada izlanishlarimizni birgina “faylasuf” termini misolida berdik. Ilmiy tadqiqotimizda deduksiya va induksiya, taqqoslash, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Deduksiya va analiz usullaridan foydalangan holda Alisher Navoiy asarlarida falsafaga oid terminlarning borligi, ularning ma‘nodoshlaridan unumli foydalanilganligi, hazratning chindan ham katta so‘z boyligiga ega ekanligini “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” orqali o‘rganib chiqildi. Tadqiqot davomida avvaldan mavjud bo‘lgan ilmiy farazni qismlarga bo‘lgan holda, ya‘ni deduksiya va analiz usullari orqali isbotlashga harakat qilindi.

Tadqiqot yakunida esa bu fikrlar umumlashtirilib, induksiya va sintez orqali umumiy xulosalarga kelindi. Shuningdek, “faylasuf” terminining qo‘llanilishi tarixiy taqqoslash, qiyoslash usullari asosida ham o‘rganildi. Mazkur tadqiqot usullari mavzuni ochib berishda samarali xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Alisher Navoiy asarlarida “faylasuf” terminining ifodalanishini o‘rganishda dastlab tarixiy taqqoslash, qiyoslash usulidan foydalanildi. Hozirda faol bo‘lgan “faylasuf” termini Navoiy davri (XIV-XV asrlar)da ham mavjud bo‘lganmi, qanchlik faol bo‘lgan degan savolga javob izlandi. Izlanishlar natijasida Navoiy asarlarida “faylasuf” termini huddi shu shaklda uchrashi aniqlandi: “Sipehr ahvolining sohibvuqufi, Jahonning korband-u faylasufi” [21]. Deduksiya va analiz

usullari orqali Navoiy asarlarida faylasuf, donishmand ma'nolarini beruvchi so'zlar aniqlandi va tahlil qilindi. Tahlillar natijasida bir qancha ma'nodosh so'zlar aniqlandi. Misol tariqasida donishvar, donishmand, donishomo'z, hikmat, hikmatgard kabi so'zlarni keltirishimiz mumkin. Aniqlangan jami 16 ta so'zning bittasi (hikmat)dan tashqari qolgan barchasi yasama so'zlar bo'lib, kompozitsiya (donishvar, hikmatgard, hikmatjo'y, hikmatmaob, hikmatoyin, hikmatpesha, hikmatqism) va affiksatsiya (donishmand, donishomo'z, hikmatparast, hikmatsoz) usullarida yasalgan.

Aniqlangan alohida faktlar asosida induksiya va analiz usullari orqali umumlashtirgan holda yakuniy xulosalarga kelindi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, mazkur so'zlarning barchasi arab tilidan o'zlashgan.

Natijada Navoiy asarlarida faylasuf so'zi hozirgidagi kabi faol bo'lmaganligi, uning o'rnida donish va hikmat so'zlari orqali yasalgan bir qancha ma'nodosh yasama so'zlar faol bo'lganligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Alisher Navoiy asarlarida "faylasuf" terminining ifodalaniشىni maqsad qilgan tadqiqot ishida tadqiqot maqsadi ochib berildi. Navoiy davri(XIV-XV asrlar)da faylasuf so'zining qo'llanilish doirasi, tildagi faolligi o'rganildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

- Alisher Navoiy asarlari orqali o'sha davr o'rganilganda, mazkur davrda "faylasuf" termini tilda hozirgiday faol bo'lmagan, balki uning o'rniga donish va hikmat so'zlari asosida yasalgan boshqa so'zlar faol qo'llangan;

- bejizga Hazrat Navoiyning so'z boyligi jahon miqyosida tilga olinmaganligi shu kichik tadqiqot doirasida ham namoyon bo'ldi. Birgina faylasuf so'zining o'ndan ortiq ma'nodoshlari aniqlandi;

- o'sha davr o'zbek falsafa terminologiyasida arabcha o'zlashmalar faol bo'lgan;

- XIV-XV asrlarda ham so'z yasaliشىning kompozitsion va affiksali usullari faol bo'lgan;

Tadqiqot uchun tanlangan usullar to'g'ri tanlanganligi uchun tadqiqotdan ko'zlangan maqsad va natijalarga erishildi. Tadqiqot boshida qo'yilgan savollarga atroflicha javoblar ham topildi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o'zbek falsafa terminologiyasining XIV-XV asrlardagi holatini xronologik o'rganishda Alisher Navoiy asarlari muhim manbaa bo'lib xizmat qila oladi va bu boradagi izlanishlarni yanada samarali davom ettirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. kun.uz/uz/news/2020/01/20 "Bizga Navoiy yoki Boburni o'qitishmagan",- Shavkat Mirziyoyev milliy tarix haqida gapirdi.
2. "Falsafa" Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", "Sharq" nashriyot-manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2004, 417-bet.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil, 320-bet.
4. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 1-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1983, 55-bet ("Majolis un-nafois", 136).
5. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 1-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1983, 169-bet ("Tarixi muluki ajam", 510).
6. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 1-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1983, 182-bet ("Xazoyin ul-maoniy", IVa- 85).
7. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 1-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1983, 501-bet ("Xazoyin ul-maoniy", IVa-417).
8. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 1-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1983, 502-bet ("Nasoyim ul-muhabbat", XV-143).
9. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 1-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1983, 502-bet ("Layli va Majnun", 68a 5).
10. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 177-bet ("Saddi Iskandariy", 267b19).
11. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 178-bet ("Farhod va Shirin", 35).
12. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 178-bet ("Farhod va Shirin", 24).

13. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 178-bet ("Saddi Iskandariy", 252a6).
14. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 178-bet ("Sabbai sayyor" (Xamsa), 1067).
15. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 179-bet ("Saddi Iskandariy", 294b2).
16. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 179-bet ("Farhod va Shirin" (Xamsa), 298).
17. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 179-bet ("Farhod va Shirin", 13).
18. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati", 4-jild, "Fan" nashriyoti, Toshkent-1985, 179-bet ("Sabbai sayyor" (Xamsa), 1070).
19. "Falsafa" Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", "Sharq" nashriyot-manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2004, 418-bet.
20. "Falsafa" Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", "Sharq" nashriyot-manbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2004, 417-bet.
21. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. 8-tom. Xamsa. Farhod va Shirin. "Fan", Toshkent – 1991, 133-bet.